

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NE‘MATOVA GULRUH BOBIR QIZI

**O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY
MATBUOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Table of Contents of the Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor
of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**

Ne‘matova Gulruh Bobir qizi

O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy matbuotning o‘rni va
ahamiyati.....5

Неъматова Гулрух Бобир кизи

Роль и значение национальной прессы в развитии международного
туризма в Узбекистане.....26

Nematova Gulrukh Bobir kizi

The role and importance of the national press in the development of
international tourism in Uzbekistan.....50

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....56

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

NE‘MATOVA GULRUH BOBIR QIZI

**O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY
MATBUOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3641 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minov Fayzulla Abdullayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

O'sarov Olimjon Avalboevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sherzodxon Qudratxo'ja

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, s.f.d., professor

Alijon Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Nozima Muratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH

(Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli medianing paydo bo'lishi va rivojlanishi iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlanayotgan turizmga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Axborot muhim mahsulot sifatida qaralayotgan globallashtirilgan jamiyatda ma'lumot tarqatishdan tortib, mamlakat imijini shakllantirish va xalqaro munosabatlar qurishda media kontentlarga murojaat qilinadi. Xususan, turizmni rivojlantirish raqamli media platformalari orqali mamlakatning madaniy, tarixiy va ilmiy salohiyatini targ'ib etish, turizm yo'nalishlarni ommalashtirish hamda xorijiy auditoriyada ijobiy tasavvur uyg'otish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo amaliyotida turizm mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi yo'nalishlardan biri sifatida rivojlanib, xalqlar o'rtasidagi tinchlik va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi va bu borada ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, jurnalistika ilmida turizm sohasini yangi yo'nalish sifatida talqin etish va xalqaro maydonda turizm rivojiga xizmat qiluvchi milliy kontentlarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda. 2016-yildan so'ng turizm O'zbekistonda davlat siyosatida ustuvor soha sifatida belgilandi. "Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Irtimizga kelmoqchi bo'lgan sayyohlar juda ko'p. Lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida media kontent kam, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi"¹. Shu o'rinda mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy matbuotning o'rnini, unda chop etilayotgan materiallarni tahlil qilish, ixtisoslashgan nashrlarning maqsadi va vazifasini o'rganish, baholash va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5611-son, 2024-yil 2-fevraldagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-9-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102-son farmonlari, 2022-yil 27-

¹ Mirziyoyev Sh. M. Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi. - URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6095> (murojaat sanasi: 30.10.2024)

indagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari”ning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon miqyosida turizm siyosat va ta‘lim, turizmni ta‘minlash zanjirini barqaror boshqarish: ta‘sirlar, drayverlar, strategiyalar va samaradorlik, transformativ sayohat va turistik ta‘lim kabi masalalar David L.Edgell, Jason R.Swanson, J.Subhanshu, A.Talvalkar, Nitin Varma, Nilanjan R.Saikia, D.B.Weaver, S.A.Smit, M.Robinson, P.Kotler, J.Boven, J.Makens, W.L.Bennett, P.Meyer, B.K.Sharma, R.Sharpley, P.Theroux, J. Borm² kabi olimlarning ilmiy izlanishlaridan o‘rin olgan.

MDH davlatlarida zamonaviy mediamakonning fenomeni sifatida trevel-jurnalistikaning muammoli maydoni, turistik mahsulotni targ‘ib qilishda Д. Ливингстон, И.В.Показаньева, Т.Ю.Редькина, В.В.Тулупов³ kabi olimlarning ilmiy yondashuvlari ahamiyatga ega.

O‘zbek olimlaridan I.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Safarov, G.Tursunovalarning o‘quv qo‘llanmasida, “O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari” bo‘yicha A.Eshdayevning monografiyasida turizm sohasiga doir qarashlar mavjud. Jurnalistika ilmida N.Qosimova tahriri ostida chop etilgan “Ixtisoshgan jurnalistika asoslari bo‘yicha hamda travel va sayohat jurnalistikasi borasida A.Nurmatov, U.Rahimov, M.Isomiddinova, Sh. Ro‘ziyev Idiyeva⁴ larning ilmiy maqolalarida tatbiq etilgan.

² David L.Edgell, Jason R. Swanson. Tourism Policy and Planning: Yesterday, Today, and Tomorrow. Routledge. London. 2010; Sudhanshu, J. Sustainable Tourism Supply Chain Management: Influences, Drivers, Strategies, and Performance. Springer. New York. 2022; Talwalkar, A., Nithin, V. The Role of Quora in the Spread of Misinformation: A Case Study of the COVID-19 Pandemic. Science. 2021; Nilanjan R. Saikia. Citizen Media and Tourism: Reporting, Resisting and Reimagining Places. the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Paris. 2017; Weaver, D.B. Tourism and fake news: The dark side of travel. Routledge. Oxfordshire. 2023; Smith, S.A., Robinson, M. Tourism and the media: A critical perspective. Routledge. Oxfordshire. 2022; Kotler, P., Bowen, J., Makens, J. Tourism marketing: A practical guide (9th ed.). Pearson Education. 2020; Bennett, W.L., Livingston, S. The media and the public: An introduction to mass communication (11th ed.). New York, NY: Pearson. 2018; Meyer, P. The future of newspapers. New York, NY: Columbia University Press. 2019; Sharma, B.K., Sharpley, R. Spiritual tourism: Concepts, theories and practices. CAB International. 2019., Theroux P. Tao of Travel/Paul Theroux. – Boston; New York: Mariner Books, 2012. – 292 p., Borm J. Defining Travel: On the travel book, travel writing and terminology / Jan Borm // Perspectives on Travel Writing / ed. by Glenn Hooper, Tim Youngs. – Aldershot: Ashgate, 2004. – P. 13–26.

³ Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г. Показаньева И. В. Проблемное поле трэвел-журналистики как явления современного медиапространства – 2013. Редькина Т. Ю. Этические и культурно-речевые нормы в трэвел-медиатексте – 2014. – № 1. – С. 150–160. Тулупов В.В. и др. Трэвел-журналистика в продвижении туристского продукта: региональный аспект. 2021, vol. 10, no. 2, pp. 225–239.

⁴ I.Tuxliyev, R. Hayitboyev, B. Safarov, G. Tursunova Turizm asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 328 bet. N. Qosimova, Q.Xidirov, A.Safarov, H.Saidov, Ю.Ортигова, M.Isomiddinova va bosh. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild. 2019. 784 bet, A. Nurmatov. Trevel jurnalistika va bloggerlikning o‘zaro ta‘siri. Raqamli dunyoda media va

Biroq jurnalistika nazariyasida yangi yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan turizm jurnalistikasining paydo bo‘lishi, rivojlanish tendensiyalari va xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy matbuotning o‘rni va ahamiyati, istiqbollari kompleks ravishda tatbiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Mass media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy matbuotda xalqaro turizmni yoritishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish, hamda xalqaro turizmni yoritishga bag‘ishlangan materiallarni tizimlashtirish orqali turizm targ‘ibotini rivojlantirishda matbuotning o‘rnini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

matbuotda turizm yo‘nalishlarini targ‘ib qilish va uni yoritish metodikasi va usullarini o‘rganish;

turizm mavzusini yoritayotgan milliy matbuot nashrlarini tizimlashtirish;

turizmning zamonaviy ko‘rinishlari va ularni targ‘ib qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

ziyorat turizmi mamlakat taraqqiyotining muhim manbai sifatida ahamiyatini ochib berish;

Yangi O‘zbekistonda turizmni PR xizmatlari yordamida rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Turizm olami”, “Саквояж”, “Uzbekistan Airways”, “Visit Uzbekistan” singari bosma nashrlar hamda “Uzbekistan.travel” elektron sayti belgilangan.

Tadqiqotning predmetini mazkur nashrlarning turizm sohasini yoritishdagi yondashuvlari, chop etilgan mediamahsulotlarning o‘ziga xos usullari, ixtisoslashgan jurnalistlarning ijod laboratoriyasi va kontent yaratishdagi yangi formatlardan foydalanish usullarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik, kontent va qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot madaniyati – barqaror rivojlanishning muhim omili. Xalqaro ilmiy konf. 2025, A. Nurmatov Trevel jurnalistikada muallif pozitsiyasi. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal № 4 (23)/ 2018. 67 b. Раҳимов У. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш: тенденциялар, имкониятлар ва истикболлар. Vol. 1 No. 1 (2025): “IORT FAXRI” – URL: <https://interspp.com/index.php/iortfaxri/article/view/1457>. M. Исомиддинова (2025). Ўзбек журналистикасида туризм мавзусининг ёритилиши. Развитие и инновации в науке, 4(6), 181–183. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/dis/article/view/113703>. Ruziyev Shohruxbek Ravshan o‘g‘li. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida) “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. Idiyeva Sitora Avaz qizi. Sayoh jurnalistikasi: yo‘nalishning xususiyati va uning muammolari. Research focus | volume 2 | issue 4 | 2023 ISSN: 2181-3833 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7854989>

milliy media landshaftda xalqaro turizm mavzusidagi kontentlar birinchi marta kompleks media-tahlil metodi asosida forma, yo‘nalish va janr belgilariga ko‘ra tipologik tasnif etilgan, reklama va targ‘ibot materiallarida namoyon bo‘luvchi yetti turdagi aktiv va uch turdagi manipulyativ kommunikatsiya strategiyalari ilk bor identifikatsiya qilinib, ularning auditoriyani safarbar etishda namoyon bo‘ladigan semiotik strukturalari hamda media psixologik ta‘sir mexanizmlari dalillangan;

turizmga ixtisoslashgan milliy matbuot makonida “To‘siqsiz turizm” konsepsiyasining yoritilishi ilk marta media-kommunikativ indikatorlar asosida kompleks baholangan, sun‘iy intellekt tomonidan avtomatlashtirilgan segmentatsiya va auditoriya ehtiyojini prognozlashning innovatsion modeli taklif etilgan, natijada milliy nashrlar uchun raqamli samaradorlikning oltita asosiy indikator - interaktivlik, mobil moslashuv, SI personallashtirish, kontent jozibadorligi, Big Data asosidagi tahlil imkoniyatlari va raqamli media integratsiyasi metodik jihatdan asoslangan;

turizmning ziyorat, sarguzasht, madaniy, eko, ta‘lim va tibbiy yo‘nalishlari doirasida mediatizatsiya jarayonlarini rivojlantirish va sohaviy ehtiyojlarga mos turizm kontentini birlashtiruvchi, auditoriyaning turli segmentlariga targetlangan ma‘lumot va xizmatlarni taqdim etishga qodir integrativ raqamli platforma modeli, ya‘ni – turizm sohasida media-kommunikativ samaradorlikni ta‘minlash, axborot oqimlarini optimal boshqarish va raqamli personallashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali turizm media-infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi uchun innovatsion yondashuv sifatida xizmat qiluvchi platforma modelini ishlab chiqish zarurati asoslangan;

turizm targ‘ibotini rivojlantirishning kommunikativ istiqbollari raqamli jurnalistika, media-integratsiya va zamonaviy kommunikatsion platformalar kontekstida ilk bor kompleks tahlil qilinib, kontentlardagi turizm targ‘iboti uchun raqamli kommunikatsiyaning yangi avlod instrumentlari (*kontentni avtomat generatsiya qilish (AI copywriting), prognostik modellash, AR/VR turizm (virtual sayohatlar), mobile-first konstruktorlari*) va mediaplatforma (*turizm xizmatlarini birlashtiruvchi API-shablonlar, avtomatlashtirilgan bron qilish, tur paket va 360° video-turlar*) integratsiyasini qo‘llash imkoniyatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o‘quv yurtlarining bosma va onlayn jurnalistika yo‘nalishlarida tahsil oladigan talabalar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozish hamda amaliyotchi jurnalistlar uchun uslubiy qo‘llanma, maxsus kurs, “Sayohat jurnalistikasi” fani doirasida ma‘ruza va seminarlar o‘tish kabi jarayonlarni takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda foydalanilgan nazariy ma‘lumotlarning ilmiy adabiyotlardan olingani, bosma nashrlar va internet saytlari materiallarini tahlil qilish, jahon tajribasini o‘rganishda birlamchi manbalardan foydalanilgani, tahlillar, ilmiy-amaliy xarakterdagi xulosalarning tasnifiy, qiyosiy metodlar bilan asoslangani, respublika hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan, OAK ro‘yxatiga kirgan xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning

hayotga tatbiq etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turizmning fundamental tuzilishi, uning konsepsiyalari, xalqaro turizmning mediaga bergan baholari, ayrim turizm yo‘nalishlarining mediada tutgan o‘rni, turizmga sun‘iy intellektning qo‘llanilishi, virtual hayot texnologiyalarining istiqbollari, milliy matbuot va onlayn nashrlarda turizmni yoritishning hozirgi holati amaliy materiallar misolida tahlil qilinganligi, milliy matbuotda turizmni yoritishni yaxshilash uchun muammolar va imkoniyatlar, jumladan, ommaviy axborot vositalariga egalik, senzura va so‘z erkinligi bilan bog‘liq muammolar ilmiy tahlil qilinganligi, yangi tadqiqotlarga yo‘l ochgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda olg‘a surilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar amaliyotchi jurnalistlar, muharrirlar, axborot xizmati xodimlari, OTM jurnalistika fakultetlari bakalavr va magistratura talabalari, ommaviy axborot vositalari, PR ekspertlari, shuningdek, turistik kompaniyalarning amaliy dasturlariga mo‘ljallangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda milliy matbuotning o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish yuzasidan ishlab chiqilgan xulosa va amaliy takliflar asosida:

milliy media landshaftda xalqaro turizm mavzusidagi kontentlar birinchi marta kompleks media-tahlil metodi asosida forma, yo‘nalish va janr belgilariga ko‘ra berilgan tipologik tasnif, xulosa va takliflardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Dunyo bo‘ylab” telekanali ijodkorlari “Точка на карте” hamda “Профи” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Dunyo bo‘ylab” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 4-iyuldagi 03-14-150-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada “Dunyo bo‘ylab” telekanalida reklama va targ‘ibot materiallarida namoyon bo‘luvchi yetti turdagi aktiv va uch turdagi manipulyativ kommunikatsiya strategiyalari ilk bor identifikatsiya qilinib, ularning auditoriyani safarbar etishda namoyon bo‘ladigan semiotik strukturalari hamda media psixologik ta‘sir mexanizmlari professional kontent tayyorlash va ko‘rsatuvlarning tomoshabopligini oshirishga, shuningdek, telekanalning elektron sahifasi (<https://t.me/tvdunyo>)ni sifatli materiallar bilan boyitishga yordam bergan;

turizmga ixtisoslashgan milliy matbuot makonida “To‘siqsiz turizm” konsepsiyasining yoritilishi hamda sun‘iy intellekt tomonidan avtomatlashtirilgan segmentatsiya va auditoriya ehtiyojini prognozlashning innovatsion modeli bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi “Yerkin Qaraqalpaqstan”, “Qaraqalpaqstan jasları” gazetalari chop etilgan maqolalarni hamda kknews.uz saytining tahliliy reportajlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2025-yil 2-sentabrdagi 20-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada “Yerkin Qaraqalpaqstan”, “Qaraqalpaqstan jasları” gazetalar va kknews.uz saytida axborotni raqamli samaradorlikning oltita asosiy indikator - interaktivlik, mobil moslashuv, SI personallasuvi, kontent jozibadorligi, Big Data

asosidagi tahlil imkoniyatlari va raqamli media integratsiyasini qo'llash orqali multimediaviy uzatish usullari samaradorligi ortgan;

turizmning ziyorat, sarguzasht, madaniy, eko, ta'lim va tibbiy yo'nalishlari doirasida mediatizatsiya jarayonlarini rivojlantirish va sohaviy ehtiyojlarga mos turizm kontentini birlashtiruvchi, auditoriyaning turli segmentlariga targetlangan ma'lumot va xizmatlarni taqdim etishga qodir integrativ raqamli platforma modelini ishlab chiqishga asoslangan taklif va tavsiyalardan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish jarayonida foydalanilgan. (O'zbekiston milliy axborot agentligi 2025-yil 5-martdagi 01-23/243-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida media-kommunikativ samaradorlikni ta'minlash, axborot oqimlarini optimal boshqarish va raqamli personallashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali turizm media-infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi uchun innovatsion yondashuv sifatida ishlab chiqilgan konsepsiyani takomillashtirishda yordam bergan;

turizm targ'ibotini rivojlantirishning kommunikativ istiqbollari raqamli jurnalistika, media-integratsiya va zamonaviy kommunikatsion platformalar konteksti xalqaro turizmni yoritish va targ'ib qilishda axboriy, tahliliy, reklama-targ'ibot usullari yetakchilik qilishi kabi tavsiyalardan Madaniy meros agentligining ijtimoiy tarmoq platformasi samaradorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi "2025-yil 26-martdagi 04-05/1147-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, agentlik sayti xodimlari content uzatishda yangi avlod instrumentlari (*kontentni avtomat generatsiya qilish (AI copywriting)*), *prognostik modellash*, *AR/VR turizm (virtual sayohatlar)*, *mobile-first konstruktorlari*) va *mediaplatforma (turizm xizmatlarini birlashtiruvchi API-shablonlar, avtomatlashtirilgan bron qilish, tur paket va 360° video-turlar)* integratsiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanishgan va axboriy, tahliliy, reklama-targ'ibot usullari samaradorligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalar 8 ta jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola jumladan, 8 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan. Dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilingani hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Matbuotda xalqaro turizmni yoritishning nazariy-metodologik asoslari”** nomli birinchi bobi uch paragrafdan tashkil topgan. Unda xalqaro turizmga oid konsepsiya va tasniflar, zamonaviy medianing xalqaro turizmga beradigan baholari, matbuotda turizmning ko'rinishlari, yo'nalishlari va uni yoritish metodikasi tahlil qilingan. *“Xalqaro turizmga oid konsepsiya va tasniflar”* deb nomlangan ilk faslida xalqaro turizm tushunchasining mazmuni, uning ko'rinishlari va yo'nalishlari, turizmning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi hissasi o'rganilgan. Turizm dunyo bo'yicha iqtisodiyotning eng serdaromad va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston kabi boy tarixiy merosga, tabiiy go'zalliklarga va betakror madaniyatga ega mamlakat uchun turizm soha sifatida ulkan salohiyatga ega. O'zbekiston geografik joylashuvi va tabiiy boyliklari tufayli turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarga ega. Mamlakatda 7 mingdan ziyod tarixiy yodgorliklar, 100 dan ortiq muzeylar, 65 ta davlat muhofazasiga olingan tabiiy hududlar mavjud⁵. Reklama, maqolalar, bloglar va rasmlar orqali jurnalistlar turizmning muhim jihatlarini namoyon etadilar. Masalan, mamlakatning turistik bo'yi, tarixiy yodgorliklari, kichik poytaxtlar va tabiiy manzaralari haqida yoziqlar bloglarda yoki gazetalarda e'lon qilinadi⁶. Xalqaro turizmning turlari quyidagicha tasniflanadi: sarguzasht turizmi, madaniy turizm, ta'lim turizmi, tibbiy turizm, xayr-saxovat turizmi va ziyorat turizmi.

Sarguzasht turizmi – tavakkal qilishni va sarguzashtni yoqtiradigan sayyohlar uchun mo'ljallangan. “Adventure Travel Trade Association” ma'lumotlariga ko'ra, sarguzasht turizmi “jismoniy faollik, madaniy almashinuv yoki tabiatdagi faoliyatni o'z ichiga olgan turistik faoliyat” deb ta'riflanadi⁷.

Ijodiy turizm – mashhur olimlar Greg Richards va Krispin Raymondning fikricha, “tashrif buyuruvchilarga kurslarda faol ishtirok etish va o'rganish tajribasi orqali o'zlarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi turizm” deb ta'riflanadi⁸.

⁵ Рахимов У. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш: тенденциялар, имкониятлар ва истикболлар. Vol. 1 No. 1 (2025): “IORT FAXRI” –URL: <https://interspp.com/index.php/iortfaxri/article/view/1457> (murojaat sanasi: 05.10.2024).

⁶ Исомиддинова М. Ўзбек журналистикасида туризм мавзусининг ёритилиши. Развитие и инновации в науке, 4(6), 181–183. (2025). – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/dis/article/view/113703> (murojaat sanasi: 05.10.2024).

⁷ Adventure tourism. – URL: <https://www.adventuretravel.biz/> (murojaat sanasi: 05.10.2024).

⁸ Richards, Greg and Raymond, C. “Creative Tourism.” ATLAS News 23. 2000. 16-b.

Madaniy turizmning maqsadi boshqa mamlakat madaniyatini o'rganishdan iborat bo'lib, u mintaqa, meroslar, shahar va qishloqlardagi sanoat va tarixiy turizmni tushunishni o'z ichiga oladi. Bu borada Yevropa Kengashi tomonidan taklif etilayotgan "Madaniy marshrutlar" dasturi – Yevropa bo'ylab turli mintaqalarni bog'laydigan, ularning umumiy madaniy merosini ko'rsatib beradigan marshrutlar tarmog'ini o'z ichiga oladi⁹.

Ekoturizm – Xalqaro ekoturizm jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm "atrof-muhitni saqlaydigan, mahalliy aholining farovonligini ta'minlaydigan hamda tushuntirish va ta'limni o'z ichiga olgan tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohat" deb ta'riflanadi¹⁰.

Ta'lim turizmi – Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "yangi narsalarni, jumladan, tarix, madaniyat yoki tabiiy muhitni o'rganish maqsadida sayohat qilish" deb ta'riflanadi¹¹.

Tibbiy turizm – sog'lomlashtirish turizmi sifatida ham tanilgan bo'lib, uning maqsadi dam olishdan tashqari salomatlik bilan bog'liq tibbiy va jarrohlik yordamini o'z ichiga oladi.

Xayr-saxovat turizmi – "Sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasida madaniy almashinuvni rag'batlantirish orqali bu jamoalarning o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi, ularning merosi uchun g'urur va hurmatni kuchaytiradi", deydi Bekker va Eggar¹².

Ziyorat turizmi – Insoniyat jamiyati uchun eng keng tarqalgan diniy va madaniy hodisalardan biri bo'lgan ziyorat dunyoning asosiy xalqaro turizm tasniflaridan hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili 300 milliondan ortiq kishi ziyorat turizmida qatnashadi¹³. Bobning "*Zamonaviy medianing xalqaro turizmga beradigan baholari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida zamonaviy media va xalqaro turizm sintezi tadqiq etilgan. Turizmni baholash orqali ommaviy axborot vositalari turizmning ta'siri haqida xabardorlikni oshirishga, barqaror va axloqiy turizm amaliyotini targ'ib qilishga yordam berishi mumkin", deydi Yoonjae Nam va So Young Bae¹⁴. 2013-yildan 2023-yilgacha "The Guardian", "The New York Times", "The Washington Post", "Nature", "Science" jurnallarida Galapagos orollarida turizmni qo'llab-quvvatlovchi jami 14 ta material berilgan. So'nggi sonlarida ushbu yetakchi nashrlarda Galapagos orollariga sayohatni tashkil etishni targ'ib qilish joqori bo'lmagan. "The Guardian" va "The New York Times" (3 tadan) nashrlarida orolga sayohatni kengaytirishga bo'lgan urinishlar uchrasa, mashhur "Nature" va "Science" jurnallarida birorta ham maqola uchramadi. Holbuki, ayni shu davrda oroldagi turizm oqibatlarida kelib chiqqan muammolarni

⁹"Cultural Routes." Council of Europe. Accessed August 28th, 2023. –URL: <https://www.coe.int/en/web/cultural-routes/home>

¹⁰ "What is Ecotourism?" The International Ecotourism Society. Accessed August 28th, 2023. <https://ecotourism.org/what-is-ecotourism/>.

¹¹ "Educational Tourism". World Tourism Organization. Accessed August 28th, 2023. – URL: <https://www.unwto.org/our-work/education-and-training/educational-tourism>.

¹² Becker, D., & Egger, R. (2019). Pro-Poor Tourism: A Critical Analysis. *Journal of Sustainable Tourism*, 27(7), 745-b.

¹³ Badrinath, K.C. *Pilgrimage and Tourism: The Sacred and the Profane*. London: Routledge. 2015.

¹⁴ Yoonjae Nam, So Young Bae. *Sustainable Tourism in the Social Media and Big Data Era*. MDPI. Basel, Switzerland. 2020. X-b.

yoritishda bu nashrlar juda faol bo'lgan. "Nature" 10 ta, "Science" 5 ta, "The Guardian" 15 ta, "The New York Times" 13 ta, "The Washington Post" 12 ta maqola chop etgan.

Kvinslend texnologiya universiteti olimi, professor Devid Uiver "Tourism and fake news: The dark side of travel"¹⁵ kitobida medianing turizmga qo'yadigan bahosining imkon qadar haqiqatga yaqinligini saqlash va bunday feyk axborotlardan qochish orqali rivojlanish mumkinligini isbotlagan bir qator argumentlar taqdim etadi:

1) OAV potensial tarafkashliklaridan xabardor bo'lish lozim;

2) balansli qamrovni topish zarur;

3) taqdim etilgan ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish ham ijobiy yaxshilanishga olib keladi. Bobning uchinchi fasli "*Matbuotda turizm yo'nalishlarini targ'ib qilish va uni yoritish metodikasi va usullari*" deb nomlangan bo'lib, matbuotda turizm yo'nalishlarini targ'ib qilish va uni yoritish usullari tahliliga yo'naltirilgan. Flip Kotler, Jon Bouens, Jemis Makens o'zlarining turizm marketingiga bag'ishlagan kitobida shunday deydi: "Matbuotda turizmning yoritilishi turizm sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy yondashuv turistlarni belgilangan joyga jalb qilishga yordam beradi, salbiy yondashuv esa ularni tashrif buorishdan qaytaradi. Shu sababli, turizm bo'yicha marketologlar va destinatsiyalar ko'pincha turizmni matbuotda yoritishga ta'sir qilish uchun ishlaydilar¹⁶. Jahon media nazariyotchilari Devid Ayri va Jon Tribe tomonidan 2010-yilda chop etilgan "Tourism and the Media: Global and Local Perspectives" kitobidagi quyidagi jumla turizm va matbuotning o'zaro uyg'unligini ifodalab bera oladi: "Turizmning ahamiyati matbuotning rivojlanishi va rivojlantirilishi uchun ham qimmatlidir. Medialashgan davrda turizmning bosma nashrdagi targ'iboti eng mukammal va ishonchi usulligicha qolaveradi"¹⁷.

Tadqiqotning "**Milliy matbuotda xalqaro turizmni yoritishga bag'ishlangan materiallar problematikasi tizimi va tipologiyasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida turizm mavzusini yoritadigan milliy matbuot nashrlari tizimi, "Turizm olami", "Саквояж", "Uzbekistan Airways", "Visit Uzbekistan" jurnallari turizm sohasida ixtisoslashgan nashr sifatidagi o'rni, "Uzbekistantravel" sayti va boshqa elektron nashrlardagi materiallarning tili, uslubi, janrlari amaliy misollar yordamida tadqiq etilgan. "*Turizm mavzusini yoritadigan milliy matbuot nashrlari tizimi*" deb atalgan birinchi paragrafida turizm mavzusini yoritadigan milliy matbuot nashrlari tizimi o'rganilgan. Fillip Mayer o'zining "Gazeta kelajagi" kitobida shunday yozadi: "Raqamli asrda gazeta sanoati duch kelgan muammolarni osongina hal qilishi mushkul, ammo o'zgaruvchan media muhitiga moslashish ularning demokratiyada muhim rol o'ynashini ta'minlay oladi. Gazetalar hanuz axborotning muhim manbasi bo'la olmoqda, demakki, ularning kelajagini butkul yo'q deyish asossizdir"¹⁸. Sababi, gazetalar o'quvchilarga mahalliy va global miqyosdagi dolzarb voqealar haqida faqat ma'lumot berib

¹⁵ Weaver, D.B. Tourism and fake news: The dark side of travel. Routledge. Oxfordshire. 2023. 56-65-bb.

¹⁶ Kotler, P., Bowen, J., & Makens, J. Tourism marketing: A practical guide (9th ed.). Pearson Education. 2020.

¹⁷ Airey, D., & Tribe, J. Tourism and the media: Global and local perspectives. Routledge. 2010. 88-b.

¹⁸ Meyer, P. The future of newspapers. New York, NY: Columbia University Press. 2019. 88-b.

qo‘ymaydi, balki ushbu voqealar tahlilini taqdim etib, o‘quvchilar atrofida dunyoning murakkabligini tushunishiga yordam beradi. Mazkur tamoyil, ayniqsa, turizm sohasini targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida biz tadqiqot doirasida o‘rgangan turizmni eng ko‘p targ‘ib qilgan nashrlarning ro‘yxati keltirilgan (1-jadval):

Turizmni eng keng targ‘ib qiluvchi muhim umumsiyosiy bosma nashrlar	Turizmga ixtisoslashgan nashrlar	Turizmni targ‘ib qiluvchi saytlar	Turizmga ixtisoslashgan elektron nashrlar
“Yangi O‘zbekiston”, “Xalq so‘zi”, “Правда Востока”, “Jadid”, “XXI asr”, “Milliy tiklanish”, “Mahalla”, “Yerkin Qaraqalpaqstan”, “Qaraqalpaqstan jasları” (qoraqalpoq tilida) va boshq.	“Turizm olami”, “Саквояж”, “Uzbekistan Airways”, “Visit to Uzbekistan” jurnali	UzA.uz, kknews.uz (qoraqalpoq tilida), kun.uz, gazeta.uz, daryo.uz va boshqalar	Uzbektourism.uz, “Uzbekistan travel”

1-jadval

Mamlakatdagi turizmni eng keng targ‘ib qiluvchi muhim umumsiyosiy bosma nashrlar qatorida “Yangi O‘zbekiston”, “Халқ со‘зи”, “Правда Востока”, “Jadid”, “XXI asr”, “Mahalla”, “Еркин Қарақалпақстан”, “Қарақалпақстан жаслары” (qoraqalpoq tilida), “Ovozi Samarqand” (tojik tilida), “Zarafshon”, “Yangi Farg‘ona” va boshqa qator gazetalar o‘z o‘rniga ega.

“Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy nashrning www.uz.uz saytida turizm mavzusi maxsus rukn ostida yoritiladi. Gazetaning telegram sahifasida 2020-yildan 2024-yil noyabrgacha e‘lon qilingan 51874 ta materialdan 482 tasi turizm mavzusiga tegishli. Gazetaning 2024-yil 22-may sonida iqtisodiyot fanlari doktori, akademik Nurisлом To‘xliyevning “Ziyorat turizmi muhim kreativ drayver” nomli maqolasi chop etildi. Muallif soha mutaxassisi sifatida keyingi yillarda ziyorat turizmida yoz berayotgan turli o‘zgarish va yangi tendensiyalar xususida ham to‘xtaladi.

“Правда Востока” – rus tilida nashr etiladigan ijtimoiy-siyosiy nashr bo‘lib, gazeta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining matbuot organi hisoblanadi. “Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari birlashgan tahririyati zamonaviy O‘zbekistonning pozitsiyasini ko‘rsatib berishda qimmatli manbalardan sanaladi. Rasmiy, publitsistik uslublarda maqolalarni taqdim etadi.

“Jadid” gazetasi ham turizm mavzusi faol yoritiladigan tahliliy materiallar sirasiga kiradi. Gazeta adabiy, ilmiy-ma‘rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. Turizmga oid “Turkiy meros va turizm” maqolasi, “Madaniy meros – turizm ko‘zgusida”, “Madaniy meros va turkiy davlatlar tashkiloti”, “Raqobatga tayyormisiz?” va

“Madaniy merosni saqlash” singari bir nechta tagsarlavhalarga ajratilib ochib berilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengesi va Vazirlar Mahkamasining organi hisoblangan “Еркин Қарақалпақстан” va “Вести Каракалпакстана” gazetalarida maxsus “Turizm” rukni ostida maqolalar berib boriladi. Gazetaning maxsus muxbiri Gulnara Juginisova muallifligidagi “Ko‘z benen ko‘rgenge ne jetsin!”¹⁹ sarlavhali maqolasida Qoraqalpog‘iston hududidagi Beruniy tumanining ichki va ziyorat turizmi imkoniyatlari xususida keng ma’lumot berilgan. Turizm mavzusini yoritishda partiya nashrlarining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, “XXI asr” gazetasida turizmni tajribali, mahoratli jurnalistlar targ‘ib qiladi. Xususan, nashrning birinchi sahifasida “Dolzarb mavzu” rukni ostida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Norqobil Jalilovning “O‘zbekistonning tashrif qog‘ozi” sarlavhali maqolasi berilgan. Maqola mavzusining o‘zi, uning mazmunidan darak berib turibdi. Turizm mavzusini yoritadigan gazetalarni tahlil qilish jarayonida nashrlarning aksariyatida nafaqat sohadagi iutuqlar, shu bilan birgalikda, kamchiliklarni ayamay tilga olgan tanqidiy ruhdagi materiallarni ham o‘rgandik. Tahlil qilinayotgan maqolada ham shunday jannatmonand go‘shalarda mehmonlar uchun yetarli darajada sharoitlar yaratilmagani, hatto oddiy targ‘ibot masalasi haminqadar ekanligi ta’kidlanadi. Aslida ham jurnalistikaning eng muhim vazifalaridan biri muammoni ko‘rsatish va unga yechim berishdir. Bobning ikkinchi fasli “*Uzbekistan airways*” *jurnali turizm sohasida ixtisoslashgan nashr sifatida*” deb nomlanadi. Unda jurnalning mavzuni yoritishdagi o‘ziga xosligi, materiallarning tili va uslubi amaliy misollar yordamida ochib berilgan. Mamlakatimiz hududida muntazam ravishda chiqib turgan bosma nashrlar – gazeta va jurnallar nomlanishi, yo‘nalishi, ixtisosligi, auditoriyasi, maqsadi, mushtariylari, yosh qatlami, tiraji, mavzu ko‘lami jihatidan bir-biridan farqlanadi. Nashrlar tipologik jihatdan bir nechta turga ajratiladi. Ular qatorida tarmoq nashrlarining faoliyati har tomonlama rivojlanib bormoqda. Sababi, bunday nashrlar maqsadli auditoriya bilan ishlash, kontent samaradorligini oshirish va natijaga erishish imkoniyatini beradi. “Uzbekistan Airways” uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz) elektron nusxasi ham, qog‘oz varianti bilan bir vaqtda chop etiladi. Bu esa o‘quvchilarga qulaylik tug‘diradi. Jurnalning ingliz tilida nashr etilishi mantiqiy va ilmiy asoslarga ega. Britaniya Kengashi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatga tashrif burorgan sayyohlarning 75 foizi mahalliy aholi bilan muloqot qilish uchun ingliz tilidan foydalanganliklarini aytishgan²⁰. So‘rov 18 mamlakatda o‘tkazildi va 18 000 dan ortiq respondentni qamrab oldi. Unga ko‘ra, ingliz tilida so‘zlasha oladigan sayyohlar ulushi mamlakatdan mamlakatga farq qiladi, eng iuqori foiz Niderlandiyada (78%) va eng past foiz Xitoyda (17%) bo‘lgan.

“Uzbekistan Airways” jurnalining 25 ming nusxada bosilishi, uni 1 million xorijlik o‘qishi nihoyatda katta iutuqdir. Bu kabi bosma nashrlarning barchasi

¹⁹ – URL: <http://erkinkarakalpak.uz/index.php/8112-2020-11-11-11-04-30> (murojaat sanasi: 26.11.2024)

²⁰ The English Effect: The Impact of English on the World. 2013. –URL: <https://www.britishcouncil.org/sites/default/files/english-effect-report-v2.pdf>

O'zbekistonning ijobiy imijini ko'tarishga xizmat qiladi. "Uzbekistan Airways"ning asosiy vazifasi O'zbekiston haqida to'g'ri ma'lumot yetkazish ekanligidan kelib chiqsak, tabiiyki, bir qancha savol tug'iladi. "Uzbekistan Airways" (O'zbekiston havo yo'llari) jurnali bosh muharriri Baxtiyor Nasimov tadqiqotimiz uchun jurnalning ayrim xususiyatlari haqida shunday fikrlarni bildirib o'tdi: "Biz mualliflarga material jurnalda e'lon qilinishi uchun muayyan talablar qo'ymaymiz. Faqatgina yozilayotgan material mavzusi aktual va qiziqarli, jurnal yo'nalishiga mos bo'lishi, birinchi navbatda, muallifning ishida keltirilgan fakt va raqamlar aniq, tasdiqlangan bo'lishi lozimligini ta'kidlaymiz"²¹.

"Nega Turon yo'lbari g'oyib bo'ldi?" maqolasi mashhur o'zbek ekojurnalisti Nargis Qosimova tomonidan yozilgan mazmunli jurnalistik tadqiqot. Maqolada jurnalist o'z da'volarini tasdiqlash uchun turli manbalardan, jumladan, ekspertlar, hukumat vakillari va mahalliy aholi bilan bo'lgan interviolardan foydalanadi. Maqola ilmiy-ommabop uslubda yozilganligi o'quvchining faqatgina ma'lumotlar bilan zerikib qolmasligini ta'minlaydi. "Turon yo'lbari nega yo'qolgan?" – sodda, tushunarli, texnik atamalar va jargondan xoli. Turizm sohasini rivojlantirish, yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijlik mehmonlar soni va salmog'ini kengaytirish, sayyohlarning beqam-u ko'st sayohat qilishlari, o'zlari istagan manzillarni ko'rishlari uchun sharoit yaratib berish, eng muhimi, ularning xavfsizliklarini ta'minlash O'zbekiston hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biridir. "Uzbekistan Airways" ayni shu vazifalarni mukammal bajarmoqda. Uchinchi faslda *"Uzbekistan.travel sayti va boshqa elektron nashrlardagi materiallarning muammolari va shakli"* deb nomlanib unda sohaga ixtisoslashgan on-layn nashrlar tahlil qilingan. Turizm mavzusi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy nashrlarning asosiy mavzularidan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, milliy jurnalistika tizimida onlayn nashrlar ("kun.uz", "daryo.uz", "gazeta.uz", "xabar.uz")ning ham O'zbekistonning turistik faoliyatini yoritishdagi hissi katta. O'zbekistonning onlayn media platformalari dunyo bo'ylab axborot tarqatadi va bu xorijlik sayyohlarni jalb qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz turizm targ'ibotida onlayn nashrlarning ham hissi katta. Buni "Uzbekistan.travel" sayti faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Sayt yuqori texnik dizaynga, vizual effektlarga egaligi bilan O'zbekistondagi boshqa turizmga ixtisoslashgan saytlardan farqlanadi. Saytning birlamchi bazasi katta trafikka joylashganligi sababli ishlashi birmuncha qiyin deyish mumkin. Sayt 14 ta (o'zbek, rus, ingliz, xitoy, yapon, arab, fransuz, nemis, portugal, ispan, turk, italyan, hind va malay) tilda faoliyat olib boradi.


²¹ Baxtiyor Nasimov. – URL: <https://www.uzairways.com/uz> (murojaat sanasi: 27.06.2024)



1-diagramma.

“Uzbekistan.travel” sayti dunyo bo‘ylab tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha 815099, O‘zbekistonda 2775 o‘rinda turadi. Sayt yillik 120 mingga yaqin tashrif buyuruvchilarga ega. Tashriflar davomiyligi, taxminan, 2 daqiqaga yaqin deyiladi²².

“Uzbekistan.travel” ijtimoiy tarmoqlarda faol ishlaydi, bu esa potensial tashrif buyuruvchilar bilan bog‘lanish va mamlakatni sayyohlik yo‘nalishi sifatida tanitish imkonini beradi.



2-diagramma.

Saytning eng ko‘p obunachilari Instagramga (39,300) to‘g‘ri keladi (46 foiz). Keyingi o‘rinda 37,000 obunachi bilan Facebook tursa, Twitter va Telegram mos ravishda 4 foizdan, YouTube platformasi 2900 ga yaqin obunachi bilan eng kam mashhurlikka erishgan ijtimoiy tarmoq sifatida qolmoqda.

“Uzbekistan.travel” sayti va onlayn nashrlar O‘zbekistonga sayohat qiluvchilar uchun noyob va qimmatli manbadir. Jumladan, sayt bir qancha xotimlarga ham erishdi:

- sayohat mazmuni va dizayni uchun bir nechta mukofotga sazovor bo‘lgan;
- dunyo bo‘ylab yirik sayohat nashrlari va veb-saytlarida namoyish etilgan;
- o‘zini turoperatorlar va sayyohlik agentliklari uchun ishonchli hamkor sifatida ko‘rsatgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Matbuotda turizm targ‘ibotini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlanadi. Uning birinchi fasli **“Turizmning**

²² – URL: <https://www.similarweb.com/website/uzbekistan.travel> (murojaat sanasi: 27.06.2024)

zamonaviy ko‘rinishlari va ularni targ‘ib qilish mexanizmlari” deb nomlanib unda turizmning zamonaviy shakllari va ularni targ‘ib qilish mexanizmlari, ziyorat turizmi mamlakat taraqqiyotining muhim manbasi sifatidagi ahamiyati, shuningdek, Yangi O‘zbekistonda turizmni PR xizmatlari yordamida rivojlantirish istiqbollari tadqiq qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”²³gi PF-5781-son Farmoni bilan Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi eng yuqori turizm salohiyatga ega bo‘lgan fuqarolar yig‘inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro‘yxatini shakllantira boshladi. Farmonga ko‘ra, fuqarolar yig‘inlari hududlarida 20 tadan kam bo‘lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va yoki ovqatlanish xizmatlaridan tashqari) ko‘rsatilgan taqdirda, ularga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilishi ta’kidlab o‘tilgan. Hozirgi kunda shu asosda maxsus turistik qishloqlar va o‘tov manzillari tashkillashtirilgan. Xususan, Navoiydagi Sentob qishlog‘iga 2023-yilning 17-mart kuni rasman turizm qishlog‘i maqomi berildi²⁴. Turizm qishloqlari bilan birga O‘zbekistonda o‘tov manzilgohlari ham mavjud. Eng mashhur o‘tov mahzilgohlar qatoriga “Aydarkul” ko‘lidan 10 km uzoqlikda joylashgan “Aydar”, Nurota shahri yaqinidagi “Safari”, Orol bo‘yidagi “Mo‘ynoq”, Ayoq qal’a yaqinidagi “Ayoq qal’a” va boshqalar kiradi.

Xitoylik media nazariyotchisi Z.Xiang bu haqida o‘zining ilmiy ishida shunday deydi: “Ommaviy axborot vositalari odamlarning turistik yo‘nalishlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Teleko‘rsatuvlar, filmlar va sayohat jurnallari odamlarning qayerga sayohat qilish haqidagi qarorlariga ta’sir qilishi mumkin”²⁵. O‘zbekistonda turizm sohasidagi mutaxassislar shunga e’tibor berishlari kerakki, sun’iy intellekt (AI) sayyohlik sanoatini jadal sur’atlar bilan o‘zgartiradi. Xitoylik olimlar Heng va Xiang sun’iy intellektning turizmdagi ahamiyatini tahlil qilar ekan, bir qator muhim jihatlarni alohida e’tirof etadi²⁶. Bular: moslashtirilgan tavsiyalar; chatbotlar; virtual yordamchilar; o‘zini tanish; bashorat. J.Hodgetts va A.Steedlarning “Virtual reality for people with disabilities” kitobida yozilishicha, “VR imkoniyati cheklangan odamlarning mushkulini oson qildi. Ular biz kabi hamma joyga sayohat qila oladilar. O‘z o‘rinlarida, o‘z aravachalarida o‘tirib buning imkoni bor”²⁷. O‘zbekistonda VR sanoati rivojlanishning dastlabki bosqichida. VR ilovalari va texnologiyalarini ishlab chiqish ustida ishlayotgan bir qator kompaniyalar mavjud. O‘zbekiston

²³ – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3137499?ONDATE=22.03.2017&ONDATE2=21.05.2022&action=compare> (murojaat sanasi: 22.05.2024)

²⁴ – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/18/sentob/?_gl=1*63tqav*_gcl_au*zMDIwMDc2NS42MC4wLjA.

²⁵ Xiang, Z., & Gretzel, U. Role of social media in online travel information search. Tourism Management Press, 47, 2015. 245-b.

²⁶ Feng, H., Xiang, Z. Artificial intelligence in tourism: A review of the literature. Tourism Management, 2020. 77-b.

²⁷ Hodgetts, J., & Steed, A. Virtual reality for people with disabilities: A review of the evidence. Frontiers in Virtual Reality, 3, 2021. 68-b.

hukumati ham VR industriyasini rivojlantirishdan manfaatdor va bu boradagi tadqiqot va ishlarni uchun muayyan mablag' ajratadi.

Qayd etish lozimki, 2022-yil O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "Xalqaro va audiovizual jurnalistika" fakultetida alohida ta'lim yo'nalishi – "Sayohat jurnalistikasi" ochildi. Bu esa, o'z navbatida, turizm sohasida bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlardan jamoatchilikni xabardor etishning eng samarali usullaridan bo'ldi.

